SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-noyabr | 389-8-111-Q/25 | Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Denov tumani

QAROR QILADI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori hamda Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi rahbari I.Ch.Ismoilovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida

teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Denov tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Denov tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 165 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 16,9 foiz (28 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 10,3 foiz (17 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 49,1 foiz (81 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 10,9 foiz (18 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 7,3 foiz (12 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 5,5 foiz (9 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi;

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Denov tumani hokimi qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash, tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

9. Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Ch.Ismoilov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Denov tumani hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.To‘raqulov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **I.Abrorov**

Denov tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
389-8-111-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Denov tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar-ning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladi-gan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					Nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironli-gi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (mai-shiy) zo‘ravonlikdan jabrlan-gan shaxslar	Kamba-g‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashti-rish shakllari-da tarbiyalan-gan yetim, ota-ona qaramog‘i-dan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalarida-n ozod qilin-gan shaxslar	odam savdo-sidan jabr-langan shaxs-lar
		JAMI:		**15267**	**339**	**165**	**28**	**17**	**81**	**18**	**12**	**9**
1	Denov tumani	Denov tibbiyot birlashmasi	201362066	3666	99	21	3	0	16	2	0	0
2	Denov tumani	2-son Viloyat perenital markazi	305695571	889	19	6	3	1	1	1	0	0
3	Denov tumani	Denov tumanlararo Ftiziatriya dispanseri	206947876	200	4	2	0	0	2	0	0	0
4	Denov tumani	2-son Viloyat ruxiy asab kasalliklar shifoxonasi	205409176	248	5	2	0	0	2	0	0	0
5	Denov tumani	Denov tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	200481362	107	1	2	1	0	1	0	0	0

6	Denov tumani	Muruvvat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi	200480214	186	4	2	0	0	2	0	0	0
7	Denov tumani	Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti	207272324	433	14	6	2	0	4	0	0	0
8	Denov tumani	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	201535973	72	4	1	0	0	1	0	0	0
9	Denov tumani	Denov Pedogogika kolleji	201436029	56	0	1	0	0	1	0	0	0
10	Denov tumani	Abu Ali Ibn Sino nomli salomatlik texnikumi	200480618	102	4	2	0	0	2	0	0	0
11	Denov tumani	1-sonli kasb-hunar maktabi	201435869	79	2	1	0	0	1	0	0	0
12	Denov tumani	2-sonli kasb-hunar maktabI	205027770	52	1	1	1	0	0	0	0	0
13	Denov tumani	3-sonli kasb-hunar maktabi	207008706	68	1	1	1	0	0	0	0	0
14	Denov tumani	4-sonli kasb-hunar maktabI	207095537	85	2	1	1	0	0	0	0	0
15	Denov tumani	14-son musiqa maktabi	206980774	49	1	1	0	0	1	0	0	0
16	Denov tumani	1-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773454	65	2	1	1	0	0	0	0	0
17	Denov tumani	2-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516281	62	1	1	0	0	1	0	0	0
18	Denov tumani	3-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773430	89	1	1	0	0	1	0	0	0
19	Denov tumani	4-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203522	151	1	1	1	0	0	0	0	0

20	Denov tumani	5-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203499	104	1	1	0	0	0	0	1	0
21	Denov tumani	6-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203689	128	2	1	0	0	0	0	0	1
22	Denov tumani	8-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207287700	105	1	1	0	0	1	0	0	0
23	Denov tumani	9-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770277	86	1	1	1	0	0	0	0	0
24	Denov tumani	10-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203359691	110	3	1	0	1	0	0	0	0
25	Denov tumani	11-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770253	73	1	1	0	1	0	0	0	0
26	Denov tumani	13-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770221	62	1	1	0	0	0	1	0	0
27	Denov tumani	14-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770238	88	1	1	0	0	0	0	1	0
28	Denov tumani	15-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203380945	108	4	1	0	0	0	0	0	1
29	Denov tumani	17-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203224963	86	1	1	0	0	0	0	1	0
30	Denov tumani	18-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203672	136	1	1	0	0	0	0	0	1
31	Denov tumani	19-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203546	164	1	1	0	0	0	0	1	0
32	Denov tumani	20-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516338	115	5	1	0	1	0	0	0	0
33	Denov tumani	21-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773408	44	2	1	0	0	1	0	0	0
34	Denov tumani	22-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203507	132	3	1	1	0	0	0	0	0
35	Denov tumani	23-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516234	87	1	1	0	0	0	1	0	0
36	Denov tumani	24-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203224931	108	3	1	0	0	0	0	1	0

37	Denov tumani	25-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203359787	65	0	1	0	0	0	0	0	1
38	Denov tumani	26-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516345	77	1	1	0	0	0	0	1	0
39	Denov tumani	27-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203214571	110	3	1	0	0	0	1	0	0
40	Denov tumani	28-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770198	98	1	1	0	0	1	0	0	0
41	Denov tumani	29-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206861620	44	0	1	0	0	0	1	0	0
42	Denov tumani	30-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203359368	93	1	1	0	0	1	0	0	0
43	Denov tumani	31-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203217544	112	2	1	1	0	0	0	0	0
44	Denov tumani	32-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770142	70	1	1	1	0	0	0	0	0
45	Denov tumani	33-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203220859	84	2	1	0	0	0	1	0	0
46	Denov tumani	34-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203229838	74	0	1	0	1	0	0	0	0
47	Denov tumani	35-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203217551	104	1	1	0	1	0	0	0	0
48	Denov tumani	36-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203224955	131	3	1	0	0	1	0	0	0
49	Denov tumani	38-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516298	112	4	1	0	1	0	0	0	0
50	Denov tumani	39-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770181	49	2	1	0	1	0	0	0	0
51	Denov tumani	40-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770134	79	3	1	0	0	1	0	0	0
52	Denov tumani	41-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770166	66	3	1	0	1	0	0	0	0
53	Denov tumani	42-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770174	94	2	1	0	0	1	0	0	0

54	Denov tumani	44-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773502	109	2	1	0	0	0	1	0	0
55	Denov tumani	45-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203539	55	1	1	0	0	0	0	1	0
56	Denov tumani	46-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770159	118	1	1	0	0	0	0	0	1
57	Denov tumani	47-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207284934	63	1	1	1	0	0	0	0	0
58	Denov tumani	49-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203482	134	2	1	0	0	1	0	0	0
59	Denov tumani	50-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203224924	127	3	1	0	0	0	1	0	0
60	Denov tumani	51-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203664	181	3	1	0	0	0	0	1	0
61	Denov tumani	52-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516321	70	2	1	0	0	0	0	0	1
62	Denov tumani	53-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207334705	72	1	1	1	0	0	0	0	0
63	Denov tumani	54-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773447	67	1	1	0	1	0	0	0	0
64	Denov tumani	55-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207285370	68	1	1	0	0	1	0	0	0
65	Denov tumani	56-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203225004	86	1	1	0	0	0	1	0	0
66	Denov tumani	57-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203229845	114	5	1	0	0	0	0	1	0
67	Denov tumani	59-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206861580	48	2	1	1	0	0	0	0	0
68	Denov tumani	60-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203217568	106	5	1	0	0	1	0	0	0
69	Denov tumani	61-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206861676	71	2	1	0	0	0	1	0	0
70	Denov tumani	62-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516314	68	1	1	0	0	0	1	0	0

71	Denov tumani	64-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204770284	79	2	1	0	0	0	0	1	0
72	Denov tumani	65-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773486	71	1	1	0	0	0	0	0	1
73	Denov tumani	66-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204773462	79	1	1	0	1	0	0	0	0
74	Denov tumani	67-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207286931	61	1	1	0	1	0	0	0	0
75	Denov tumani	70-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207286924	55	1	1	0	0	0	1	0	0
76	Denov tumani	72-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516242	107	4	1	0	0	0	1	0	0
77	Denov tumani	73-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516306	91	3	1	0	0	1	0	0	0
78	Denov tumani	74-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516266	86	2	1	0	1	0	0	0	0
79	Denov tumani	76-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516274	68	1	1	0	0	0	1	0	0
80	Denov tumani	77-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	202159292	111	2	1	0	0	1	0	0	0
81	Denov tumani	78-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203211465	135	3	1	0	1	0	0	0	0
82	Denov tumani	79-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	202159317	147	4	1	0	0	1	0	0	0
83	Denov tumani	80-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203224948	111	6	1	0	0	1	0	0	0
84	Denov tumani	81-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203203554	108	2	1	0	0	0	1	0	0
85	Denov tumani	82-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	204516259	113	0	1	0	0	1	0	0	0
86	Denov tumani	84-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203366304	73	2	1	0	1	0	0	0	0
87	Denov tumani	85-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206862864	86	2	1	0	1	0	0	0	0

88	Denov tumani	86-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203349696	113	2	1	0	0	0	1	0	0
89	Denov tumani	87-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206861573	61	2	1	0	1	0	0	0	0
90	Denov tumani	88-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206862872	59	3	1	0	0	1	0	0	0
91	Denov tumani	89-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206862889	59	3	1	0	0	1	0	0	0
92	Denov tumani	90-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	205215197	56	1	1	1	0	0	0	0	0
93	Denov tumani	91-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	205248931	72	2	1	0	0	0	0	1	0
94	Denov tumani	92-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207001257	54	1	1	0	0	1	0	0	0
95	Denov tumani	96-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	207302017	72	3	1	0	0	1	0	0	0
96	Denov tumani	98-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	202049421	74	1	1	0	0	1	0	0	0
97	Denov tumani	1-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207055625	43	1	1	1	0	0	0	0	0
98	Denov tumani	2-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207056140	41	0	1	0	0	1	0	0	0
99	Denov tumani	3-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207273798	27	0	1	0	0	1	0	0	0
100	Denov tumani	4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207023428	24	0	1	0	0	1	0	0	0
101	Denov tumani	7-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207084234	32	1	1	0	0	1	0	0	0
102	Denov tumani	8-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207083608	41	0	1	0	0	1	0	0	0

103	Denov tumani	9-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207056118	42	0	1	1	0	0	0	0	0
104	Denov tumani	10-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207002896	45	0	1	0	0	1	0	0	0
105	Denov tumani	12-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207023404	26	0	1	1	0	0	0	0	0
106	Denov tumani	13-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207023554	30	0	1	0	0	1	0	0	0
107	Denov tumani	14-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207023411	30	0	1	0	0	1	0	0	0
108	Denov tumani	15-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207026329	27	0	1	0	0	1	0	0	0
109	Denov tumani	17-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207058043	33	0	1	0	0	1	0	0	0
110	Denov tumani	18-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207273806	37	0	1	0	0	1	0	0	0
111	Denov tumani	19-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207002936	56	1	1	0	0	1	0	0	0
112	Denov tumani	20-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207273814	34	1	1	0	0	1	0	0	0
113	Denov tumani	21-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207026154	33	1	1	0	0	1	0	0	0
114	Denov tumani	22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207029782	39	1	1	0	0	1	0	0	0
115	Denov tumani	23-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207084503	22	0	1	0	0	1	0	0	0

116	Denov tumani	28-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207055618	42	0	1	0	0	1	0	0	0
117	Denov tumani	29-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207053335	24	0	1	1	0	0	0	0	0
118	Denov tumani	31-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207024497	23	0	1	0	0	1	0	0	0
119	Denov tumani	34-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207273838	33	1	1	0	0	1	0	0	0
120	Denov tumani	35-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207308973	44	0	1	0	0	1	0	0	0
121	Denov tumani	36-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207308965	48	0	1	0	0	1	0	0	0
122	Denov tumani	37-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207308958	47	0	1	0	0	1	0	0	0
123	Denov tumani	38-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207286694	26	0	1	1	0	0	0	0	0
124	Denov tumani	40-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207330971	27	0	1	0	0	1	0	0	0
125	Denov tumani	Barkamol avlod bolalar markazi	207122218	159	7	1	0	0	1	0	0	0
126	Denov tumani	Madaniyat va sport ishlari bo'limi	201435963	50	2	1	0	0	1	0	0	0
127	Denov tumani	""Amu-Surxon" Irrigasiya Tizimlari Xavza Boshqarmasi Xuzuridagi To'palang-Qoratog' Irrigasiya Tizimi Boshqarmasi"	207289531	278	2	2	1	0	0	0	0	1

		Davlat Muassasasi										
128	Denov tumani	Denov tuman Yo`llardan foydalanish U.K	200486498	189	5	2	0	0	0	0	1	1